

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA STEAM O'QITISH
TEKNOLOGIYASINING O'ZIGA XOSLIGI****Po'latova Mahfuza To'lqinovna***Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti*

Annotation: *The role of STEAM technology in this article is to introduce children to various knowledge, encouraging them to think scientifically and creatively. At the same time, this approach develops children's sense of responsibility, logical and systematic thinking. In preschool education, Steam's main goal is not only to provide children with information, but also to teach them practical skills, encourage them to work in a team, and provide them with the necessary knowledge to succeed in life.*

Key Words: *STEAM, technology, preschool, personality, human, individ, nobility.*

Аннотация: *Роль технологии STEAM в этой статье заключается в том, чтобы познакомить детей с различными знаниями, побуждая их мыслить научно и творчески. В то же время такой подход развивает у детей чувство ответственности, логическое и системное мышление. В дошкольном образовании главная цель Steam - не только предоставить детям информацию, но и научить их практическим навыкам, побудить их работать в команде и дать им необходимые знания для достижения успеха в жизни.*

Ключевые слова: *STEAM, технология, дошкольное учреждение, личность, человек, индивид, благородство.*

Zamonaviy ta'lim tizimida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) o'qitish texnologiyasi yosh avlodni jahon bilan birga rivojlantirish, yangi texnologiyalarga moslashish va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur vositalardan biridir. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasining qo'llanilishi bolalarning ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika kabi sohalarga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi, ularning kognitiv va ijodiy rivojlanishiga yordam beradi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasining o'rni, uning erta rivojlanishdagi ta'siri va amaliy qo'llanilishi haqida so'z boradi. STEAM o'qitish texnologiyasining maktabgacha ta'limdagi o'rni haqida fikr bildiradigan bo'lsak, Maktabgacha ta'lim – bu bolaning jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishining eng muhim bosqichidir. Shu davrda bolaning dunyoqarashi shakllanadi, turli ko'nikmalarni o'zlashtiradi va o'qishga tayyorlanadi. STEAM texnologiyasining maktabgacha ta'limda qo'llanilishi bolalar uchun ilmiy va texnologik ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Afsuski, o'tmishda ta'limda fanlar alohida-alohida o'rganilgan, ammo STEAM metodologiyasi ularni integratsiya qilishga yordam beradi va bolaning barcha sohalarda bilim olishiga imkoniyat yaratadi. STEAM texnologiyasi, bolalarni turli bilimlar bilan tanishtirish bilan birga, ularni ilmiy va kreativ fikrlashga

rag'batlantiradi. Shu bilan birga, bu yondashuv bolalarda mas'uliyat hissini, mantiqiy va tizimli fikrlashni rivojlantiradi. Maktabgacha ta'limda STEAMning asosiy maqsadi – bolalarni faqat ma'lumot bilan ta'minlash emas, balki ularga amaliy ko'nikmalarni o'rgatish, jamoada ishlashga undash va ularga hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bilimlarni berishdir.

STEAM- o'qitishining erta tivojlanishga ta'siri bu erta rivojlanish – bu bolalarning kognitiv, hissiy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanish jarayonlarining boshlanish davri bo'lib, aynan shu davrda bolaning rivojlanishi uchun asosiy ta'sirlar shakllanadi. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasining qo'llanilishi bolaning rivojlanishida katta rol o'ynaydi. STEAM o'quv dasturlari bolalarni qiziqtirgan savollarni o'rganishga undaydi, bu esa o'z navbatida ularning izlanish va tahlil qilish qobiliyatini oshiradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar STEAM faoliyatlarida ishtirok etish orqali muammolarni hal qilish, tasavvur qilish va ijodiy fikrlashda o'zgarishlarni sezilarli darajada amalga oshiradilar. Misol uchun, bolalar oddiy ilmiy eksperimentlar orqali fizik qonunlarni o'rganishadi, geometrik shakllar bilan ishlashda matematika ko'nikmalarini oshiradilar. Bunday faoliyatlar bolaning tafakkurini kengaytiradi va dunyoqarashini rivojlantiradi. STEAM faoliyatlari, shuningdek, bolalarni muammolarni hal qilishda mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatadi. Ularning fikrlash jarayoni tizimli va mantiqiy bo'lib, bularning barchasi ularning kelajakda ijtimoiy va bilimli shaxs bo'lib shakllanishiga yordam beradi. STEAM o'qitishining amaliy qo'llanilishi maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasini samarali qo'llash uchun bir qator amaliy usullar mavjud. Masalan, bolalar uchun tashkil etilgan ilmiy tajribalar orqali ular fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarni o'rganishadi. Oddiy tajribalar orqali, masalan, suv va havo holatlari, ishtirokchilarni ilm-fan bilan tanishtirish mumkin. Bu kabi faoliyatlar bolalarning savollariga javob topish, yangi g'oyalarni yaratish va kognitiv jarayonlarni rivojlantirishda yordam beradi.

San'at faoliyatlari, masalan, ranglar bilan ishlash, shakllar yaratish, konstruktiv modellash kabi faoliyatlar bolalarni kreativ fikrlashga o'rgatadi. Shu bilan birga, matematika va texnologiya fanlarining asoslarini o'rganish, bolalarni sonlar, shakllar va algoritmlar bilan tanishtirishga yordam beradi. Bunday faoliyatlar bolalar uchun qiziqarli bo'lishi bilan birga, ularni yangi bilimlarni o'zlashtirishga rag'batlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda STEAM o'qitish texnologiyasining joriy etilishi bolalar uchun ilmiy, texnologik, san'at va matematika sohalariga qiziqishni uyg'otadi. Bu texnologiya, shuningdek, bolalarda kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. STEAM faoliyatlari bolalarning erta rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, kelajakda ularning muvaffaqiyatli shaxslar sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Shu boisdan, maktabgacha ta'lim tizimida STEAM texnologiyasining keng qo'llanilishi zamonaviy ta'lim tizimining samarali rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azimov, O. (2018). Maktabgacha ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
2. Shamuradov, A. (2020). STEAM yondashuvining maktabgacha ta'limda qo'llanishi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim instituti.
3. Raximov, M. (2017). Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta'lim metodlari. Toshkent: O'zbekiston Ta'lim akademiyasi.
4. Saidov, Sh. (2019). Pedagogik texnologiyalar va metodlar: Teoriya va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti.